



**THE PROBLEM OF STUDYING GENRES WITH COMPLEX STRUCTURES IN UZBEK
CLASSICAL LITERATURE**

Kazakbayeva Dilrabo Jalolovna

Doctor of Philosophy in Philology, National University of Uzbekistan

Abstract

The article discusses the problems of studying complex structural genres in Uzbek classical literature. The principles and tasks of studying complex structural genres are determined.

Keywords: Literary types and genres, complex structural genres, analysis and research, science of poetry, science of rhyme, science of poetry.

Annotatsiya

Maqolada o'zbek mumtoz adabiyotidagi murakkab strukturali janrlarni o'rganish muammolari haqida so'z yuritiladi. Murakkab strukturali janrlarni o'rganish tamoyillari va vazifalari belgilab beriladi.

Kalit so'zlar: Adabiy tur va janrlar, murakkab strukturali janrlar, tahlil va tadqiq, ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi badi'.

Аннотация:

В статье рассматриваются проблемы изучения сложноструктурных жанров в узбекской классической литературе. Определены принципы и задачи изучения сложных структурных жанров.

Ключевые слова: Литературные виды и жанры, сложноструктурные жанры, анализ и исследование, наука о поэзии, наука о рифме, наука о поэзии.

Adabiyotshunoslikda adabiy tur va janrlarning tadqiqi hozirga qadar o'zbek va jahon adabiyotshunosligi miqyosida birlamchi ilmiy muammolardan biri sifatida baholanib kelinadi. Adabiy tur va janrlar tadqiqiga bo'lgan ehtiyoj adabiyotshunoslikning boshqa turlariga nisbatan bir necha o'n hissa ortiq ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Shu bois adabiy tur va janrlarni tadqiq etish faqat o'zbek adabiyotida emas, qardosh xalqlar adabiyotshunosligida ham, jahon adabiyotshunosligida ham ancha tadqiqot talab etuvchi muammolardandir. Ayniqsa, o'zbek mumtoz adabiyotdagi adabiy turlar, ifoda shakllari va janrlarning aniq chegaralarini belgilab olish, bu janrlar orqali ifoda etilgan poetik mazmun imkoniyatlarini o'rganish va janrlar badiiyatini tadqiq etish sohasida hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar talaygina.

Jahon adabiyotshunosligida adabiy tur va janrlar poetikasini tarixiy va nazariy jihatdan o'rganish badiiy adabiyotning juda ko'p muammolarini hal etishga imkoniyat yaratadi. Hozirgi kunda ham adabiy janr va unga xos xususiyatlarni o'rganish poetika ilmining zimmasida turibdi. Shunday ekan,



badiiy matnning janrga xos jihatlarni poetikaning boshqa masalalari bilan bog'liq holda o'rganish orqali ayrim janrlar tabiatini tadrijiy jihatdan to'la ochishga erishish jahon adabiyotshunosligi oldida turgan muammolardan biridir.

Har bir poetik janrning o'z qat'iy strukturasi mavjud bo'lib, muayyan asarning badiiyatini o'rganish bilan birga, uning janr xususiyatlarini tadqiq etish dunyo adabiyotshunosligida qabul qilingan ilmiy taomillardan biridir. Mumtoz janrlar tarkibiy jihatdan turlicha bo'lishiga qaramay, ularning tabiati, asosan, o'sha janrda yaratilgan asarlarning vazn, qofiya va band xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Mumtoz she'riy janrlarga xos bu kabi jihatlarni o'rganish ham bevosita adabiyotshunoslik ilmining asosiy vazifasi hisoblanadi. O'zbek adabiyotshunosligida mumtoz asarlarni o'rganishga bo'lgan e'tiborning kuchayishi yangi davr adabiyoti ilmi oldiga dolzarb va muhim muammolarni qo'yadi. Xususan, adabiy tur va janr masalalarini o'rganish, ularni ilmiy va nazariy jihatdan tadqiq etish hamon adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Mumtoz janrlar tabiati va bu janrlarda bitilgan asarlarni o'rganish hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q, ayniqsa, g'azal, ruboiy va boshqa kichik janrlar tabiati ancha jiddiy tadqiq etildi. Biroq mumtoz she'riy janrlar orasida nisbatan kam o'rganilgani **murakkab strukturali janrlar** bo'lib, o'zbek adabiyotshunosligidagi mavjud ilmiy zaruriyat va adabiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tadqiq etish lozimligini taqozo etadi.

Shu ma'noda adabiyotshunoslikda adabiy tur va janrlarni o'rganish va jamoatchilikka tadqiq etish insonlarni intellektual jihatdan o'sishiga xizmat qiladi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim bo'g'inlardan birini tashkil etadi.

To'g'ri, shu kunga qadar murakkab strukturali janrlar bo'yicha jahon adabiyotshunosligida ayrim ishlar qilingan. Masalan, AQSH, Turkiya, Eron, Tojikiston, Qozog'iston mamlakatlaridagi ilmiy tadqiqot institutlarida tadqiq etilgan: AQSHdagi Indiana davlat universiteti (Koliforniya shtati) Sharq adabiyotini o'rganish markazi tomonidan o'rganilgan bo'lib, bu haqda prof. Devin de Uis xabar bergan¹. Turkiyada Jem Dilchin tomonidan nashr etilgan "Turk she'r bilimi" kitobida mumtoz she'riy janrlar qatorida murakkab strukturali janrlarga to'xtalangan, unga Usmonli turk adabiyotidan misollar keltirilgan². Erondagi Tehron va Tabriz universitetlarida fors she'riyatidagi mumtoz janrlar haqida tadqiqotlar amalga oshirilgan³. Tojikiston Fanlar akademiyasi olimlari tomonidan fors-tojik poetikasiga doir ishlar tarkibida mazkur janrlar balog'at fanlari bilan birgalikda tadqiq etilgan⁴. Qozog'iston Fanlar akademiyasi Olmaota bo'limida prof. I.Jemeney amalga oshirgan ishlarida janrlarga oid fikrlarini bayon qilgan⁵.

¹ Devin de Weese. The predecessors of Navai in the Funun al-balaghah of Shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: A neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century. Festschrift in honor of Eleazar Birnbaum. Ed. Virgine Aksan. Vol. 29. 2005. – P. 73-163.

² Dilçin Cem. Örneklere Türk Şiir bilgisi. 8. Baskı. – Ankara, 2005. – S. 233-251.

³ Даромади ториhi бар назираи адабий. Аз Афлотун то Борат. – Техрон, 1381 (хижрий-шамсий).

⁴ Мусулманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика X–XV веков. – М.: Наука, 1989. – С. 131-140.

⁵ Тарази Шейх Ахмет Кудайдад. Коркем соз онери. – Алматы, 2013. – Б. 3-12.



XX asr boshlarida mazkur janrlarga oid ayrim ma'lumotlarni A.Fitrat, S.Ayniy ishlarida uchratish mumkin.⁶ Ushbu janrlar nazariyasiga oid qarashlar A.Qayumov, A.Hayitmetov, R.Orzibekov, YO.Ishoqov, I.Haqqulov, H.Boltaboyev, D.Yusupova, M.Asadov⁷ kabi olimlarning tadqiqot va maqolalarida aks etgan. Adabiy tur va janrlar yuzasidan tadqiqotlar olib borgan prof. R.Orzibekov "O'zbek lirik she'riyati janrlari"⁸ monografiyasida, navoiyshunos olimlar D.Yusupova "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" (Alisher Navoiy davri) qo'llanmasida⁹ qisqacha, keyinchalik Sh.Sirojiddinov va O.Davlatov bilan hammualliflikda yozgan "Navoiyshunoslik" darsligida ushbu janrlar doirasida fikr bildirgan¹⁰. Biroq shu kunga qadar o'zbek adabiyotshunosligida murakkab strukturali janrlar tahlili va takomili bo'yicha alohida ish yaratilmagan, ushbu janrlarning o'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'rne, adabiyotshunoslikda tutgan mavqei yuzasidan fundamental tadqiqot olib borilmagan. Ushbu ilmiy-adabiy ehtiyojdan kelib chiqib bugungi kunda murakkab strukturali janrlar muammosini hal etish ayni zamonda adabiyotshunoslikning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbek mumtoz she'riyatida yaratilgan murakkab strukturali janrlarning nazariy manbalari, ushbu janrlarning XX asr boshlariga qadar bo'lgan tadrijiy takomili, shakl va mazmun jihatidan transformatsiyalashuvi va tarixiy takomilini zamonaviy adabiyotshunoslik talablaridan kelib chiqqan holatda tahlil qilish qo'yilgan muammoning maqsadini aniqlashga yordam beradi.

Adabiyotshunoslikda adabiy tur va janrlar masalasi izchil o'rganilganiga qaramay, mumtoz adabiyotdagi murakkab strukturali janrlar masalasi hamon muammoligicha qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, bugungi kun adabiyotshunosligi murakkab strukturali janrlarni chuqur o'rganish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni belgilab olmog'i maqsadga muvofiq:

- 1.Murakkab strukturali janrlarga oid manbalarni ilmiy muomalaga kiritish. Murakkab strukturali janrlarning nazariy asoslarini o'rganish orqali har bir janrga xos xususiyatlarni belgilash. Mumtoz she'riyatdagi murakkab strukturali janrlar tasnifini amalga oshirish va ularning tarixiy taraqqiyot omillarini belgilab olish.
- 2.Navoiygacha bo'lgan davrda murakkab strukturali janrlar taraqqiyotini belgilash. Murakkab strukturali janrlarning boshqa janrlarga munosabati haqida ilmiy asoslangan tahlillar natijasi yuzasidan xulosalar berish.

⁶ Фитрат. Адабиёт қондалари / Танланган асарлар. 4-жилд. – Т.: Маънавият, 2010. – Б. 43-44; Айний С. Асарлар. Саккизинчи том. Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1965.

⁷ Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2016; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: O'zbekiston, 2015; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O'zbekiston, 2015; Орзобеков Р. Ўзбек лирик шеърини жанрлари. – Т.: Фан, 2006; Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий (жанринг поэтикаси ва тарихи). – Т.: Фан, 1981; Юсупова. Д. Алишер Навоийнинг Шоҳ Ғариб Мирзога бағишланган таркиббанд-марсияси хусусида // Alisher Navoiy va XXI asr mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – 2020. 5-сон.

⁸ Орзобеков Р. Ўзбек лирик шеърини жанрлари. – Т.: ЎзФА, 2006. – Б. 232-242.

⁹ Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Т.: Академнашр, 2013. – Б. 51-54.

¹⁰ Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Т.: Tamaddun, 2018. – Б.312-317.



3. Navoiy va uning davrida murakkab strukturali janrlar tarixiy takomilini, janrlar haqidagi nazariy qarashlarni o'rganish. Navoiy ijodida musammat shakllari, yirik hajmli janrlarning ifodasini chuqur tahlil etish.
4. XVI-XIX asrlar adabiyotida murakkab strukturali janrlarning tasnifini berish. Buxoro, Qo'qon va Xiva adabiy muhitida murakkab strukturali janrlar rivojini, takomilini va tadrijini ko'rsatish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish.
5. Murakkab strukturali janrlar shakllanishi va taraqqiyotining tarixiy omillari va nazariy asoslari, boshqa mumtoz poetik janrlardan farqli jihatlarini va bu janrda yozilgan asarlarning poetik xususiyatlarini yoritib berish.
6. Murakkab strukturali janrlarni tahlil qilish jarayonida ularning janr xususiyatlari va mavzuiy jihatlarini ochib berish. Murakkab strukturali janrlar masalasini:
 - ilmi aruz;
 - ilmi qofiya;
 - ilmi badi' jihatdan yoritib berish.

Muallif g'oyasi, an'anaviy obrazlar tizimi, asar strukturasida syujet va kompozitsiyaning mumtoz adabiyot taraqqiyotidagi o'rni va mumtoz an'analarning davom etishini tizimli tahlil etish.

7. Alisher Navoiydan keyingi avlod shoirlari ijodida murakkab strukturali janrlarda obrazlar talqinidagi an'anaviylik, salafлари ijodidan samarali ta'sirlangani va asarlari ichki strukturasida shakl va mazmunning mutanosibliги va asar g'oyasi bilan uyg'unlikdagi o'ziga xosliklarini ochib berishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, murakkab strukturali janrlarni o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini, badiiy va ilmiy tahlillar asosida kuzatib, O'zbek va Sharq xalqlari adabiyotidagi mumtoz asarlar janrlarining mushtarak va o'ziga xoslik masalalarini chuqur o'rganish, o'zbek adabiyoti tarixida murakkab strukturali janrlarning ahamiyatini tadrijiy tahlillar asosida isbotlash maqsadga muvofiqdir. Ayni paytda, o'zbek mumtoz adabiyotida adabiy tur va janrlar muammosini tadqiq etishda, murakkab strukturali janrlarni tarixiy va nazariy jihatdan mumtoz adabiyotshunoslik va bugungi kun adabiyotshunosligi talablari asosida o'rganish jiddiy tadqiqotlarni talab etadi.

Adabiyotlar

1. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O'zbekiston, 2015.
2. Орзибеков Р. Ўзбек лирик шеърлари жанрлари. – Т.: Фан, 2006.
3. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Т.: Академнашр, 2013. – Б. 51-54.
4. Қажумов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2016.
5. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: O'zbekiston, 2015.
6. Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий (жанринг поэтикаси ва тарихи). – Т.: Фан, 1981.